

---

**Jamshid KOSIMOV**

*Toshkent moliya inistituti*

## **REAL SEKTOR KORXONALARIDA INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada real sektor korxonalarini investitsion loyihalarni moliyalashtirish, real sektor korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish sohasidagi olib borilayotgan islohotlar, shuningdek, investitsiya faoliyatini yanada takomillashtirish hozirgi kunning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotimiz tarmoqlaridagi sanoat korxonalarining investitsiya faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'ymasdan, investitsion loyihalarni moliyalashtirishga mablag'larni jalb qilish va samarali o'zlashtirish ishlarini amalga oshirmasdan, investitsiyalarni to'g'ri boshqarmay turib iqtisodiyotni barqaror o'stirish, asosiy kapitalni yangilanishiga va ko'payishiga, butun investitsion sohada nazariy va amaliy jihatdan ko'rib chiqish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biri hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Real sektor korxonalar, sanoati korxonalar, investitsion loyihalar, loyihalarni moliyalashtirish, asosiy kapital, taraqqiyot strategiyasi, tashqi iqtisodiy faoliyat, xorijiy investitsiyalar.

## **INCREASING THE EFFICIENCY OF FINANCING INVESTMENT PROJECTS IN REAL SECTOR ENTERPRISES**

**Abstract.** In this article, real sector enterprises are one of the important issues of the present day in the field of financing investment projects, attracting investments to real sector enterprises, as well as further improvement of investment activities. One of the issues of theoretical and practical consideration in the entire investment sphere is the sustainable growth of the economy, the renewal and growth of fixed capital, the development of the economy without proper investment management, the involvement of investment enterprises in the sectors of our economy without the proper organization of investment activities, the involvement and effective appropriation of funds for financing investment projects.

**Keywords:** real sector enterprises, industry enterprises, investment projects, project financing, basic capital, development strategy, foreign economic activity, foreign investment.

## **Kirish**

Ma'lumki, investitsiya faoliyati har qanday rivojlanish tizimida ham milliy iqtisodiyotning taraqqiy etish darajasini o'zida ifodalaydi. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan investitsiyalar, jumladan, xorijiy investitsiyalarining ko'lami va salmog'iga qarab mamlakatning iqtisodiy barqarorligiga baho berish mumkin.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lgan sanoat tarmog'ini barqaror rivojlanishiga erishish, iqtisodiyotning boshqa tarmoq va sohalari bilan uzviylikdagi muammolarni butunlay bartaraf etish, sanoat korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatidan to'laqonli foydalanish va ularni rivojlantirish borasida keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Shu boisdan, sanoat tarmog'ini taraqqiy ettirish, sanoat korxonalarini investitsion faoliyatini moliyalashtirish, ushbu tarmoqqa investitsion mablag'larni keng hajmda jalb etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda sanoatning asosiy tarmoqlari, shu jumladan, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalarining faoliyatini yangilash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ularda investitsion faoliyatni samarali tashkil etish asosida qo'shimcha moliyaviy mablag'larni jalb etish va ulardan oqilona foydalanish ustuvor vazifalar sirasiga kiradi.

Sanoat tarmoqlarining, xususan, to'qimachilik va tikuv-trikotaj tarmog'ining barqaror rivojlanishiga erishishda, mahalliy xomashyo resurslaridan unumli foydalanish asosida raqobatbardosh va yuqori sifatli tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan tarmoq korxonalarini jahon standartlari bo'yicha yangilash jarayonlarini to'liq, har tomonlama va doimiy tartibda amalga oshirish zarur. Bunda korxonalar tomonidan ushbu faoliyatlarni moliyalashtirish uchun zarur moliyaviy mablag'larni jalb qilish, ushbu mablag'lardan samarali foydalanish muammosi o'z yechimini kutmoqda.

## **Tahlil va natijalar**

Har bir mamlakat, avvalo, iqtisodiy rivojlanishga, dunyodagi rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilishga harakat qiladi. Shu orqali makro va mikro muhitni rivojlantirishga, yalpi ichki mahsulotni oshirishga intiladi. Bunday keng ko'lamli ishlarni bajarish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ham katta ahamiyat kasb etadi.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirishga doir qator maqsad va vazifalar nazarda tutildi. Jumladan, Taraqqiyot strategiyasining 26-maqsadida, mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120

milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko‘rish ko‘zda tutilgan [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 21-dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida “Iqtisodiyotimizga shu yilning o‘zida 8 milliard dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar kirib keldi, eksportimiz esa, 19 milliard dollarga yetganligini” e‘tirof etib, 2023-yildagi eng ustuvor yo‘nalishlardan oltinchisi iqtisodiyotga mahalliy va xorijiy xususiy investitsiyalarni ko‘paytirish uchun sharoitlarni yanada yaxshilaymiz deb belgilab berdi [2]. Bu esa xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi uchun qulay investitsiya muhiti va uni jozibadorligini yanada oshirish zaruriyatini ko‘rsatadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning investitsion muhitning jozibadorligini oshirish maqsadida qabul qilingan 2018-yil 2-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasiga investitsiya kiritgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga ko‘p martalik uch yillik viza olish va uning amal qilish muddatini O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqish zaruratisiz cheklanmagan miqdor da uzaytirish huquqi berildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonunining 9-moddasida, tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo‘nalishlaridan biri respublikaga chet el investitsiyalarini jalb qilish vazifasi belgilangan. Aynan shu sababli, O‘zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalar kiritish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport va aloqa sohasini yanada rivojlantirish hamda ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo‘nalishlarga aylandi [3].

Bugungi kunda mamlakatimizda investitsion muhit va uning jozibadorligini yanada oshirish milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirishida muhim o‘rin egallaydi. Buning asosiy sabablari bo‘lib quyidagilar:

- birinchidan, ishlab chiqarish quvvatlarining eskirganligi, ularning qayta tiklashga yoki texnik jihatdan qayta jihozlashga yoki umuman yangilash kerakligi;
- ikkinchidan, sanoat tarmog‘i moddiy texnika bazasining pastligi, zarar ko‘rib ishlaydigan korxonalarining mavjudligi;
- uchinchidan, mamlakatimizning tabiiy boyliklarga boyligi va bu yerda ko‘plab qayta ishlovchi korxonalarini qurish imkoniyatining mavjudligi;
- to‘rtinchidan, qishloq hududlariga yaqin joylarda kichik zamonaviy ixcham korxonalarini barpo etish zarurligi; beshinchidan, respublikamizda ko‘plab tayyor mahsulot ishlab chiqarish zarurligi va boshqalar hisoblanadi.

Fikrimizcha, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi asosiy muammolardan biri bu qulay investitsiya muhitining yo‘qligi, ya‘ni xususiy mulk

huquqlarini tartibga solish va himoya qilish sohasining takomillashtirish bo‘lib hisoblanadi. Bunday holat iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini pasaytirishi mumkin.

Davlat statistika qo‘mitasining ma‘lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda jami 10 milliard dollardan ortiq, jumladan, 8 milliard 100 million dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya o‘zlashtirilgan. Buning natijasida 318 ta yirik va 15 mingdan ziyod hududiy loyihalar amalga oshirilib, 273 mingdan ortiq ish o‘rni tashkil etilgan. Yangi korxonalar jami 1 milliard dollardan ziyod eksport va 530 million dollarlik import o‘rnini to‘ldirish imkoniyatiga ega.

Shu bilan bir qatorda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning yuqori texnologiyali va inson kapitaliga faol yo‘naltirilmaganligini ham ko‘rishimiz mumkin. 2022-yilda 9 milliard 500 million dollardan ziyod to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalarni o‘zlashtirish, 282 ta yirik va 9 mingdan ortiq hududiy loyihalar ishga tushirish mo‘ljallangan. Eksport hajmini 14 milliard dollarga yetkazish hisob-kitob qilingan [4].

2021-2023-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturida Respublika xomashyo bazasini kengaytirish va uni qayta ishlashni chuqurlashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va yuqori texnologiyalarni keng jalb qilish, investitsiya loyihalarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini ta‘minlash, shu asosda yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish hamda hududlarni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish belgilangan.

Jumladan: 928,3 trln so‘m miqdoridagi markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalar, 37,5 mlrd AQSH dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirilishini nazarda tutuvchi 2021

2023-yillarda kapital qo‘yilmalarni o‘zlashtirishning yig‘ma prognoz parametrlari;

226 ta yangi ishlab chiqarish quvvati va 34 mingdan ziyod ish o‘rni yaratilishini nazarda tutuvchi 2021-yilda yirik ishlab chiqarish obyektlari va quvvatlarini ishga tushirish bo‘yicha manzilli dasturi ma‘qullangan [5].

Ushbu me‘yoriy hujjatga ko‘ra qurilish hamda to‘qimachilik sohasidagi ishlarni izchil davom ettirish maqsadida, 2021-2023-yillar uchun qiymati 109 trln. so‘mdan ziyod 1 ming 277 ta investitsiya loyihasi shakllantirilgan. Shundan deyarli 4,9 mlrd. dollari xorijiy investitsiya va kreditlarga to‘g‘ri keladi. Bu harakatlar 86 mingga yaqin ish o‘rni tashkil etish imkonini yaratadi.

Ushbu dasturga muvofiq 2021-yil 1-yanvardan boshlab esa xalqaro moliya institutlari kredit mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladigan loyihalar bo‘yicha yangi tizim yaratilib, har bir loyihada belgilangan mablag‘larni samarali taqsimlash va natijadorligini ta‘minlash maqsadida «Loyiha ofislari» rahbar va xodimlarini malakasi oshirilib, o‘qitildi. 2022-2024-yillarga mo‘ljallangan investitsiya

dasturida 1 trln. so‘m miqdoridagi markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalar, jumladan 41,4 mlrd. AQSH dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirilishi belgilangan. Bu esa o‘z navbatida 230 ta yangi ishlab chiqarish quvvati va 50 mingdan ziyod ish o‘rnini yaratish imkonini beradi (Jia, X., Cui, Y., Patro, R., Venkatachalam, S., Kanday, R. & Turayevich, J. (2023)).

Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda O‘zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar quyidagicha bo‘lgan: asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan jami investitsiyalar – 245 trln. so‘m, markazlashgan investitsiyalar – 44,8 trln. so‘m, markazlashmagan investitsiyalar – 200,2 trln. so‘m, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar – 104,5 trln. so‘m, O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – 17,3 trln. so‘m, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar – 87,2 trln. so‘m bo‘lgan [7].

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotiga 50 dan ortiq davlat investitsiya kiritmoqda. Strategik rivojlanish agentligi rahbari o‘rinbosari Aleksey Simning «Iqtisodiy sharh» nashriga bergan intervyusida bergan ma‘lumotlariga ko‘ra 2021-yilda O‘zbekistonga eng ko‘p quyidagi davlatlar investitsiya kiritgan:

Xitoy – 2,2 mlrd dollar; Rossiya – 2,1 mlrd dollar; Turkiya – 1,18 mlrd dollar;

Germaniya – 800,7 mln dollar; Janubiy Koreya – 137,4 mln dollar.

2021-yil yakuniga ko‘ra, o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 11,1 mlrd dollarni tashkil etib, yillik prognozga nisbatan 113 foizga bajarilgan. Shu jumladan, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 9,8 mlrd dollarga yetgan (2020-yil ko‘rsatkichlariga nisbatan o‘shir sur‘ati 110 foiz).

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar 9 mlrd dollarga yoki prognozga nisbatan 117 foizga, shu jumladan, asosiy kapitalga 2020yilga nisbatan 124 foizlik o‘shir bilan 8,2 mlrd dollar o‘zlashtirilgan.

Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari mablag‘larining o‘zlashtirilishi 2,1 mlrd dollar yoki yillik prognozning 100 foizini tashkil etgan. 2021-yilda TXXI va kreditlar hisobidan tarmoq korxonalarini tomonidan 3,8 mlrd dollar yoki prognozga nisbatan 103 foizga, hududiy loyihalar bo‘yicha esa 5,2 mlrd dollar yoki prognozga nisbatan 130 foizga o‘zlashtirilgan. Investitsiyalarning asosiy hajmi energetika sektori, metallurgiya, kimyo sanoati, elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarish, IT-texnologiyalar, qurilish, farmatsevtika, yengil sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarga to‘g‘ri kelgan.

2021-yilda O‘zbekistonda 10 mlrd dollardan ortiq xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirilib, 12 mlrd. dollarlik mahsulot va xizmatlar eksport qilingan. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar institutining bergan ma‘lumotlariga ko‘ra: “2022-yilning yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan 50,1 trln. so‘m investitsiyalar o‘zlashtirilgan. Bu 2021-yilning mos



davridagiga nisbatan 26,6 foiz ko'p bo'lib, YaIMning 30,8 foizini tashkil etdi. Investitsiyalarning asosiy qismi to'g'ridan-to'g'ri, kafolatlanmagan xorijiy investitsiyalar va kreditlar (43,2 foiz), korxonalar va aholi mablag'lari (38,3 foiz) hisobidan moliyalashtirildi [7].


Hukumat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 38,4 foizga qisqartirilganiga qaramay, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, boshqa xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar hajmi 56,5 foizga keskin oshgani tufayli asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 46,2 foizi tashqi resurslar hisobidan moliyalashtirildi. Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan investitsiyalarni moliyalashtirish hajmi 74,9 foizga qisqargani bois, davlat resurslarining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni moliyalashtirishdagi ulushi ham pasayib ketdi. Aholi mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar hajmi 3,4 foizga qisqargan bo'lsada, korxonalar mablag'lari va bank kreditlari hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar hajmining ortishi ichki resurslar asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng yirik manbaiga qolishiga sabab bo'ldi."

Investitsion jozibadorlikni ta'minlash va investitsiya salohiyatidan oqilona foydalanishda investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan mintaqaning imkoniyatlarini inobatga olish, ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmani innovatsion yangilashga yo'naltirilgan investitsiya faoliyatini jadallashtirish, mintaqaviy tadqiqotlarning moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya darajasini oshirish va innovatsion investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan [5].

Mamlakatdagi kompaniyalar o'z dividend siyosatida dividend va reinvestitsiya o'rtasidagi me'yoriy nisbatni aniqlashi, minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilishi, aksiyalarning bozordagi narxlarining o'sishiga erishishi, biznes faoliyatini kengaytirishi kabilar kompaniyalarning investitsion jozibadorligini oshirishga imkon beradi, bu esa mamlakatning investitsion jozibadorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [7].

Mamlakatdagi innovatsiya va investitsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy hamda me'yoriy-huquqiy, ijtimoiy va boshqa shartsharoitlarning qulayligi mamlakat investitsion jozibadorlik darajasini belgilab beruvchi asosiy omillardan hisoblanadi [9].


Ushbu maqolada O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar iqtisodchi olimlarining mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida investitsion jozibadorlikning o'rnini va ahamiyatini ifodalovchi manbalarining tahliliga bag'ishlangan ilmiy asarlari va maqolalari o'rganilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida grafika usulda guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil hamda sintezlash, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.



**1-rasm. Mamlakat investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar [10]**

Investitsiya jozibadorligi mamlakat investitsiya salohiyati va investitsiya riski darajasining bir vaqtda ta'sir etishi orqali aniqlanadi. Bu kabi ko'rsatgichlar esa investitsiyalarning maqsadga muvofiqligi hamda jozibadorligini anqilashga yordam beradi. Investitsiya riski darajasi investitsiya muhitiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Investitsiya muhiti makroiqtisodiyot darajasida, ya'ni investor va aniq davlat organlari, xo'jalik subyektlari o'rtasidagi munosabatlarda o'z aksini topadi. Investitsiya muhiti har qanday aniq vaqt uchun obyektiv holat bo'lib, capital qo'yish uchun mavjud sharoitlarning majmuasini o'zida qamrab oladi. Lekin investitsiya muhiti davlat organlarining boshqarish faoliyati ta'sirida shakllanadi. Shuning uchun davlatning investitsiya siyosati eng omillardandir. Shu ma'noda har bir davlat kapital import qilishda o'zining aniq kapital qabul qilish tizimiga ega bo'adi. Investitsiya muhiti darajasi qanchalik yomon bo'lsa, investor o'z riskini shunchalik yuqori belgilaydi. Investitsiya muhitining makroiqtisodiy darajada quyidagi rasm ko'rinishida tasvirlash mumkin.



**2-rasm. Xorijiy investitsiyalar uchun hudud jozibadorligini baholashning “BERI” indeksi [12]**

Yuqoridagi 1-rasmda ko‘rishimiz mumkinki, O‘zbekistonda investitsion jozibadorlikni belgilovchi kengaytirilgan uchta eng yirik segmentlar mavjud bo‘lib, ular siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy tarmoqlar tarkibidagi ta’sir etish kuchiga ega turli-xil omillar sanaladi. Bu omillarning barqarorligi esa o‘z-o‘zidan investitsiyalarni donor pozitsiyasida kirib kelishi uchun munosabatlar negizi vazifasini o‘tabgina qolmay, investor o‘z kapitalini yo‘naltirish borasida mamlakatning hududi hamda soha-tarmoqlariga bo‘lgan potentsiali ortib boradi. Shu qatorda aksincha, investitsiya muhiti darajasi qanchalik yomon bo‘lsa, investor o‘z riskini shunchalik yuqori belgilaydi.

O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtirishga kata e’tibor qaratilib, investorlarga ko‘maklashish va kafolatlar berish uchun ularga investitsiya, soliq tizimida va bojxona to‘lovlari sohalarida ma’lum imtiyozlar, sharoitlar va kafolatlar tizimi yaratildi. Shuningdek, xorijiy investitsiyalar uchun hudud jozibasini baholashda ko‘pchilik xorijiy investorlar ham “BERI” (business



environment risk index) indeksidan foydalanadilar. Bu indeks asosiy 15 ko'rsatkichda aniqlanadi, 0 dan 4 ballgacha. Indeksning optimal jihatlari shundaki, u bilan hududlardagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy strukturani qay tarzda ishlayotganini bilish mumkin bo'ladi. Quyidagi 2-rasmda baholash mezonlari, ularning investitsiya qarorlarini qabul qilish bo'yicha ahamiyatidan kelib chiqib aks ettirilgan.

Yuqorida keltirilgan infografik shakldagi rasmda "BERI" (Biznes muhiti xavf-xatarlari haqida ma'lumot) indeksi mamlakat investitsiya muhitini turli hajmga ega bo'lgan 15 ta baholash mezonlariga asoslangani berilgan bo'lib, har bir mezonga 0 dan (to'g'ri kelmaydi) 4 gacha (o'ta qulay) baho beriladi. To'plangan ballarning yuqori bo'lishi barqaror mamlakatni anglatadi. Mamlakat to'plagan ball qanchalik past bo'lsa, investitsiyalashdan olinishi mo'ljallangan foyda yuqori bo'lishi zarur, aks holda investitsiyalash samara keltirmaydi. Shu o'rinda, «BERI» indeksiga kirgan ko'rsatgichlar orasida siyosiy barqarorlik (0,12 foiz) eng kata ahamiyatga ega hisoblanadi [13].

So'nggi bir necha yil ichida O'zbekiston jadal iqtisodiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda biznes va investitsiyalar uchun turli xil to'siqlarini bartaraf etishda ochiqlik, yangilanish va qat'iyatlilik ramzlaridan biri sifatida tobora ko'proq namoyon bo'lmoqda. Investitsiya muhitining holati faqat investor uchun emas, balki investitsiya qabul qiluvchi uchun ham muhim jarayondir.

### **Xulosa va takliflar**

Iqtisodiyotning real sektor korxonalarida investitsion loyihalarni moliyalashtirish masalalari yuzasidan quyidagi xulosalarga keldik:

- birinchidan, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga iqtisodiyot real sektor korxonalarini investitsion faoliyatini rivojlantirish orqali erishiladi. Investitsiyalarni real sektor korxonalarini moliyalashtirishga yo'naltirish va ularning barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi;

- ikkinchidan, xorijiy investitsiyalarni real sektor korxonalarini moliyaviy ta'minotini mustahkamlashda olib borayotgan faoliyatlari iqtisodiyotni rivojlanmagan tarmoqlarini moliyalashtirishda muammolari mavjudligi ko'rsatadi;

- uchinchidan, real sektor korxonalarini aniq, puxta ishlab chiqilgan investitsion loyihalarini mavjud emasligi, asoslanmagan loyihalarni amaliyotga joriy qilinishi ularning moliyaviy barqarorligini pasaytiradi va olingan kreditlarni qaytarishda muammolar ketirib chiqaradi.

Fikrimizcha, milliy iqtisodiyotning real sektoridagi mavjud sharoit va imkoniyatlarni hisobga olgan holda, real sektor korxonalarida investitsion

loyihalarni moliyalashtirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur, shu jumladan:

- respublikamiz tijorat banklarida kreditlardan ko‘rilgan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarini aktivlarni o‘rtacha miqdoriga nisbatan darajasini 0,5% dan oshishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Buning uchun birinchidan, tasniflangan kreditlarning umumiy hajmida yaxshi va standart kreditlarning salmog‘ini pasayishiga yo‘l qo‘ymaslik va ikkinchidan, tijorat banklari aktivlarining barqaror o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash lozim.

- eksportni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish - bu borada an‘anaviy eksport yo‘nalishlaridan tushgan daromadlarni yangi texnologiyalarga va yangi sotuv bozorlarini egallashga qaratilgan investitsiyalarga aylantirish mexanizmini qayta ishlash jiddiy samara beradi;

- ishlab chiqaruvchilarni jahonning eng yaxshi namunalariga yo‘naltiradigan xalqaro sertifikatlash va standartlash hamda mahsulotni attestatsiyadan o‘tkazish tizimini qayta ko‘rib chiqish orqali mahsulot sifatini baholash tizimini o‘zgartirish. Bu borada mahsulotning muayyan turlarini sertifikatlash bo‘yicha xalqaro tizim va bitimlarni hisobga olgan holda olib borish tartibini belgilovchi me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqish zarur.

- Respublikada ishlab chiqarilgan tovarlarni jahon bozoriga olib chiqish mahsulotning jahon standartlariga javob beradigan yuksak texnik saviyada bo‘lishidan tashqari marketing, reklama, maslahat, axborot va huquqiy xizmatlar uchun katta miqdordagi qo‘shimcha xarajatlarni ham talab qiladi. Shuningdek, xalqaro maslahat firmalari bilan yaqin aloqalarni yo‘lga qo‘yib, imkoniyatga qarab ularni eksport fondlari tarkibiga kiritish zarur.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
2. <https://president.uz/oz/lists/view/5774> - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi
3. O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni
4. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4937 son qarori.
5. Nodir Jumaev. “Ways to attract investment with assessment of investment potential of the regions” International Journal of Economics, Commerce and Management United Kingdom Vol. VII, Issue 2, February 2019 Licensed under Creative Common Page 664, ISSN 2348 0386 <https://www.researchgate.net/publication/331231655>

6. Jia, X., Cui, Y., Patro, R., Venkatachalam, S., Kanday, R. & Turayevich, J. (2023). Application of fractional-order nonlinear equations in coordinated control of multi-agent systems. *Nonlinear Engineering*, 12(1), 20220335. <https://doi.org/10.1515/nleng-2022-0335>
7. S.Elmirzayev. Rivojlangan mamlakatlarda dividend siyosati tahlili va Dividend Aristokratlari. // “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy-elektron jurnali, №2, 2020. – B.11; <https://uzjournals.edu.uz/interfinance>
8. Turayevich, J. I., & Akmal o’g’li, S. M. (2023). INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIALASHTIRISHDA TIKLANISH VA TARAQQIYOT JAMG’ARMASINING O’RNI. *PEDAGOGS jurnali*, 35(4), 147-157.
9. Butaev J. Activities of large issues in the economy of Uzbekistan *Multidisciplinary Research Journal*. – 2021. – Т. 11. – №. 6. – С. 757-766.
10. Ergasheva Sh., Uzoqov A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish – T.: Iqtisod-Moliya, 2008. 37-b.
11. Жуманиязов, И. Т., & Садыкова, Н. О. (2023). Ўзбекистонда ва жахонда суверен фондлар инвестицион фаолияти. *Science and Education*, 4(6), 915–920. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6106>
12. Ochilov, B. (2023). Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsion jozibadorlikni yaxshilash masalalari. *Iqtisodiyot va ta’lim*, 24(1), 75–81. [https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss1/a10](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a10)
13. Shernaev A.A. GENERAL METHODOLOGICAL BASES OF TAX PLANNING IN ENTERPRISES // *International Journal of Economics, Commerce and Management United Kingdom* ISSN 2348 0386 Vol. VIII, Issue 4, April 2020 Licensed under Creative Common Page 357
14. Шернаев А.А. Налоговое планирование в системе обеспечения финансовой безопасности в акционерных обществах // «Интернаука»: научный журнал - № 12(141). Часть 2. Москва, изд. «Интернаука», 2020. - с. 43-45
15. Shernaev, A. A. Principles and methods of organization of the internal tax control system in joint stock company. *International Journal of Economics, Business and Management Studies*-ISSN, 2347-4378.
16. Шернаев, А. А. (2020). Совершенствование налогового планирования в акционерных обществах-как механизм повышения эффективности финансового менеджмента. *Экономика и общество*, (4), 20-28.
17. Ochilov, B. (2023). Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsion jozibadorlikni yaxshilash masalalari. *Iqtisodiyot va ta’lim*, 24(1), 75–81. [https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss1/a10](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a10)
18. Jumaniyazov, I. T. (2019). The impact of Uzbekistan Reconstruction and development fund’s expenditure on GDP growth. *Science, research, development*, 16.
19. SHERNAEV A.A. TAX ANALYSIS IN MICROLEVEL TAX PLANNING // *ELECTRONIC JOURNAL OF ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING*. FEBRUARY, 2021 -IV. ISSN 2181-9750, 75-82-p.
20. SHERNAEV A.A. ON THE ISSUE OF THE EFFICIENCY OF TAXATION OF JOINT STOCK COMPANIES // «ЭКОНОМИКА И БИЗНЕС: теория и практика». *Международный ежемесячный научный журнал - №9-2 (67)*. Москва, изд. ООО «Капитал», 2020. – с. 149-152.



**International Journal of Finance and Digitalization**

[www.ijfd.uz](http://www.ijfd.uz)

ISSN: 2181-3957

Vol. 3 Issue 01, 2024

---